



The expression of unwillingness within the category of desire

Kamoldin UMAROV¹

Andijan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2024

Received in revised form

10 November 2024

Accepted 25 November 2024

Available online

25 December 2024

Keywords:

category,

category of desire,

desirability-undesirability.

ABSTRACT

The article discusses the linguistic description of the category of desire and its main properties. Within this category, it is emphasized that the opposition of desirability and undesirability and the nature of gradation play an important role. Also, for the formation of desire as a linguistic category, the existence of a specific meaningful framework, means and methods of expression of unwillingness is shown as a theoretical basis.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss6/S-pp29-32>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Xohish-istak kategoriyasida istamaslikning ifodalanishi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

kategoriya,

xohish-istak kategoriyasi,

istalganlik-istalmaganlik.

Maqolada xohish-istak kategoriyasining lisoniy tavsifi va uning asosiy xossalari muhokama qilingan. Ushbu kategoriya doirasida istalganlik va istalmaganlikka oid zidlik oppozitsiyasi hamda darajalanish xususiyati muhim rol o'ynashi ta'kidlangan. Shuningdek, xohish-istakning lisoniy kategoriya sifatida shakllanishi uchun o'ziga xos mazmuniy doira, istamaslikning ifoda vositalari va usullarining mavjudligi nazariy asos sifatida ko'rsatilgan.

Выражение нежелания в категории желания

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

категория,

категория желания,

желательность-

нежелательность.

В статье рассматривается лингвистическое описание категории желания и ее основных свойств. В рамках данной категории подчеркивается, что важную роль играют противопоставление желательности и нежелательности и характер градации. Также для формирования желания как

¹ PhD, Department of Uzbek linguistics, Andijan State University.

языковой категории в качестве теоретической основы показано наличие определенной смысловой основы, средств и способов выражения нежелания.

Tilshunoslikda kategoriya tushunchasi muayyan ma'no va shakllar tizimidan iborat bo'lib, keng ma'noda fonetik, leksik yoki semantik hodisalar tizimidan ham tashkil topishi mumkin. Xususan, istak kategoriyasi – o'z ifodalanish vosita va usullariga, voqelanish omil va imkoniyatlariga, intralingvistik va ekstralingvistik xususiyatlariga ega bo'lgan psixolingvistik hodisa sifatida semantik, leksik, grammatik va uslubiy aspektlar nuqtai nazaridan o'rganish obyekti bo'la oladi [1].

Shuningdek, istak ma'nosining mavjud bo'lishida istalganlik/istalmaganlik tarzidagi zidlik oppozitsiyasi hamda darajalanish xossasi mazkur kategoriyani voqelantiruvchi omillar hisoblanadi[2]. Kategoriya doirasida umumlashganlik borliqning har qanday unsuri uchun, xususan, til birligi uchun ham yashash shartidir. O'ziga xos mazmuniy doirasi, ifoda vositalari va ifoda usullarining mavjudligi xohish-istakning lisoniy kategoriya sifatida belgilanishi uchun nazariy asos bo'la oladi[3].

O'zbek tilida istamaslik ma'nosining kommunikativ-semiotik hamda formal jihatdan tadqiq qilish zarurati mavjud.

Mantiqiy mazmun nuqtai nazaridan istamaslik tushunchasini ikki xil talqin qilish mumkin: 1) biror narsaga, harakatga istak yo'qligi; 2) noxush, qiyin yoki o'ziga yoqmagani narsani qilmaslik, (ya'ni, qadriyatlarga qarshi bormaslik istagi).

1) *Qishloq guzariga yetmay, u o'ngga – tor ko'chaga burildi; odamlarga ko'rinishni istamadi. Eski tegirmon tomondan yurib, deyarli hech kimni uchratmadi.* (O'. Usmonov, "Qismat")

2) *Uch yil davomida u deyarli uyidan chiqmadi, hech kimni ko'rishni xohlamadi, faqat tinmay yig'ladi. 16 yil o'tgachgina nihoyat o'ziga keldi va hayotdan zavqlana boshladi.* (Internetdan)

Birinchi va ikkinchi misolda shaxsning kayfiyati yo'q edi, shuning uchun odamlarga ko'rinishni istamadi. Ya'ni, bizningcha, istamaslikning tub mohiyatida istak turadi – bunda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatga qarshilik, shu holatning (birinchi misolda odamlarga ko'rinish, ikkinchi misolda birovni ko'rish) yuz bermasligini istash aks etadi. Demak, yuqoridagi misollarda harakatga istak yo'qligi, istamaslik kayfiyati ifodalanmoqda. Quyidagi misollarga e'tibor bering:

3) *Axir sizning oilangiz bor. Ulardan kecholmaysiz. Men esa, nikohsiz birovga turmushga chiqolmayman. Shuning uchun, taklifim munosabatlarimiz avvalgidek, do'stona qolaversin. Men birovga zararim tegishini istamayman. Birovning baxtsizligi evaziga baxtli bo'lolmasligimni yaxshi bilaman.* (Dilbar Barotova, "Buni hayot deydilar")

Ushbu misolda ayolning o'z istagiga qarshi borib, birovning baxtsizligi evaziga oila qurishni istamasligi uning qadriyatlarni aziz bilishini, olijanobligini ko'rsatadi.

4) *Muxbir so'ramish, kotib aytmish o'sha bandai mo'minlar ko'z o'ngidan bir-bir o'tdi: Xolliev, Saidov, To'raeva... Bu bandayi mo'minlar... bu bandayi mo'minlar bundan besh-olti yil muqaddam... rahmatlik bo'lib edi...*

Shu-shu, Qoplon kotib yuzini ko'rmadi. Ko'rishni-da xohlamadi. Kotibni esladi – seskandi, eti jimirladi. Kotibni esladi – bosh chayqadi, yoqasiga tufladi. Ko'rmish-kechirmishlarini elga joriy etmoqchi-da bo'ldi. Yana tag'in shashtidan qaytdi. (Tog'ay Murod, "Oydinda yurgan odamlar").

Yuqoridagi misolda kotibning jirkanch qilmishi – vafot etib ketgan kishilarning nafaqalarini olib yurganligiga beixtiyor guvoh bo'lib qolgani sababli uni ko'rishni ham, u bilan gaplashishni ham mutlaqo istamaydi, undan qattiq jirkanadi, iztirob chekadi.

O'zbek tilida istamaslik mazmuni *istamadi*, *xohlamaydi* kabi bo'lishsiz fe'llar, shuningdek, *xushi yo'q*, *tobi yo'q*, *tobi toqati yo'q* (*tobu toqati yo'q*), *rayi bo'lmadi* kabi birikmalar bilan ifodalanadi. Ushbu so'zlarning "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi izohlari quyidagicha:

Xushi yo'q – Xohlamaslik, yoqtirmaslik; xohishi yo'q. (O'TIL, 4-jild, 430-b.).

Kuyib ketdi bag'ir, ammo, yo'q taskin,

Xushim yo'q yig'i-yu azalarga. (Muslimbek Musallam)

Ustaning ovqatga unchalik xushi yo'q ekan. Orastaxon olib kelgan jarkopga qayrilib ham qaramadi. (Said Ahmad, "G'ildirak"). So'nggi misoldagi "...qayrilib ham qaramadi" birikmasida ham xohish-istakning yo'qligini kuzatish mumkin.

O'g'li xushiga kelsa ikki enlik xat yozadi, bo'lmasa u ham yo'q. (Gazetadan). Ushbu gapdagi "**xushiga kelsa**" birikmasida ikki xil ma'no ifodasini kuzatish mumkin. Xotira va xohish semalarini kuzatish mumkin.

Toqati yo'q – Sabr-chidam yetishmasligini, chiday olmaslikni bildiradi. *Ochig'ini aytsam, kitob o'qishga toqat yo'q.* (S. Ahmad, "Qadrdon dalalar"). *Bunga qolganda, sizni bilmasam-da, ammo mening bunday judolikka sira toqatim yo'q.* A. Qodiriy, "O'tkan kunlar". (O'TIL, 4-jild, 163-b.)

"O'zbek tilining izohli lug'ati" da *toqati yo'q* iborasiga berilgan yuqoridagi ta'rif shu lug'atda keltirilgan ikkinchi *Bunga qolganda, sizni bilmasam-da, ammo mening bunday judolikka sira toqatim yo'q* jumlasidagi mazmunga to'la mos keladi. Biroq, bizningcha, *Ochig'ini aytsam, kitob o'qishga toqat yo'q* jumlasidagi *toqati yo'q* iborasi "sabr-chidam yetishmasligi, chiday olmaslik" ni anglatmaydi, balki bu o'rinda so'zlovchining illokutiv maqsadidan kelib chiqadigan ma'no "kitob o'qishga xohishi yo'qligi" ni anglatadi. Demak, *toqati yo'q* iborasining ikkinchi ma'nosida "xohlamaslik", "istamaslik" semasi yotadi. Iboraning har ikki ma'nosi kontekstda anglashiladi. *Sira toqati yo'q, tobi-toqati yo'q, tobu toqatim yo'q* variantlari esa uslubiy bo'yoqdorlikka ega bo'lib, "istamaslik" ning kuchli darajasini ifodalaydi.

Burni, og'zidan buralib chiqqan achchiq tutun hushini o'ziga keltirganday biroz yengillashdimi, sekingina entikib qo'ydi. Uning ko'ziga yana burni tagidagi ikkita tishini ko'rsatib iljaygan bashara ko'rinib ketdi. Uning bag'ri butunligini shafqatsizlik bilan tortib olgan bu ayolni ko'rishga Nizomning toqati yo'q edi. (S. Zunnunova, "O'shanda ham kuz edi").

Musurmon tog'a qanchalar ko'ngilchan va mehribon odam bo'lmasin, ikkovimizning uyimiz ro'parasida o'sgan, oti ham, zoti ham notayin, ana o'sha bechoravash daraxtni yoqtirmas, unga sira tobi-toqati yo'q edi. (Erkin Usmon, "Txarad").

Jalil qaytib, tanchaga omonat o'tirdi. Keyin o'rnidan turib qo'shni xonaga kirdi-da, elektr pechi olib chiqib qo'ygach:

- *Ahmoqlik ham evi bilan-da. Sen ahmoqqa qo'shilib shamollashga tobu toqatim yo'q, – deb yana tashqariga chiqdi. Uch-to'rt daqiqadan so'ng xokandoz to'la cho'g' ko'tarib kirib tanchaga soldi. Chap panjasida siqimlab turgan isiriqni cho'g' ustiga tashlab, joyiga o'tirgach, "gaping bo'lsa, ana endi gapir" deganday oshnasiga qarab oldi.* (T. Malik, "Shaytanat")

*Bola tushmagurning somsapazlikka **sirayam toqati yo'q-da**. Mendan bemaslahat avtobazaga borib ishga joylashib olibdi. Bir shalaq aravani berib qo'yishgan, bir kun yursa, o'n kun qora moyga belanib tuzatadi. Shunda ham shashtidan qaytmayapti. Juda o'jar-da.* (T. Malik, "Shaytanat").

*Ichkilikni yoqtirmasdi. Chunki ichkilik ichuvchilarning qanday sharmandali ahvolga tushganlariga ko'p guvoh bo'lgan. Bunday qabohat ishlarga **sira ham toqati yo'q**, viqor va odob egasi edi.* (L. Qozonchi, "Saodat asri qissalari").

*Zokirjon aka tibetlik shifokorlar ko'magida mahalliy sharoitda, o'zimizda o'sadigan giyoh-o'simliklardan dori tayyorlashni yo'lga qo'yishni maqsad qilgan edi. Tibetliklarning bu taklifga **uncha rayi bo'lmadi**. Ular o'zlari dori-darmon olib kelishlari shartligini aytishdi.* (Q. Kenja, "Boburiylardan biri").

*Habib Sattorov bu yakunga qarshi bir gap aytmadi. Sohib Po'latovning fikrini ma'qullaganidan emas, aksincha, aytilgan gapning naqadar tuban, naqadar puch ekani sababli unga javob qaytarishni **lozim topmadi**.* (Tohir Malik, "Shaytanat")

Misollardan ko'rinadiki, o'zbek tilida xohish-istakni ifodalovchi birliklardan uning aksini ifodalovchi birliklar rang-barangdir. Bu insonning kognitsiyasi bilan bog'liq bo'lib, salbiy hissiyot uyg'otuvchi holatlarga birinchidan, e'tiborning kattaligi, ikkinchidan undan qochish yo'l-usullarining rang-barangligini ham tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мальцева А.П. Введение в философию желания. Критический анализ опыта концептуализации феномена желания. М.: ФЛИНТА, 2014. – С. 4.
2. Алтабаева Е.В. Концепт «желание» как лингвофилософская категория // Вопросы когнитивной лингвистики № 4 (013) 2007. – С. 109-118.
3. Мальцева А.П. Феномен желания: философско-антропологический подход: дисс...док-ра философ. наук. Ульяновск, 2005. – С.199.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik. 2008 yil.
5. Усмонов Ў. Қисмат (ҳикоя). Тошкент –1988. 255 б.
6. Ahmad Lutfiy Qozonchi. Saodat asri qissalari (1-kitob). Intizor kutilgan tong.
7. Tog'ay Murod. Oydinda yurgan odamlar (qissa). Toshkent – 2008. 87 b.
8. Erkin Usmon. Txarad (hikoya).